

ONORE DE BALZAKNING "DAHRIYNING IBODATI" ASARIDA INSON VA E'TIQOD MASALASI**Sheraliyeva Zarshoda Otabek qizi**

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

zarshodasheraliyeva22@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.20234243>

Annotatsiya. Ushbu maqolada fransuz adibi Onore de Balzakning "Dahriyning ibodati" asarida doktor Deplen obrazi orqali ilm va e'tiqod, aql va qalb, dahriylik va ibodat o'rtasidagi munosabatlar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Inson, e'tiqod, dahriylik, ibodat, ruhiy kechinma, falsafiy tahlil, realizm.

Abstract. This article sheds light on the relationship between science and faith, reason and heart, atheism and prayer through the character of Doctor Deplen in French writer Honore de Balzac's *The Atheist's Prayer*.

Keywords: Human, belief, atheism, prayer, spiritual experience, philosophical analysis, realism.

Аннотация. В этой статье на примере персонажа доктора Деплена из романа французского писателя Оноре де Балзака "Дахрийнинг ибодати" рассматривается взаимосвязь между наукой и верой, разумом и сердцем, атеизмом и молитвой.

Ключевые слова: Человек, вера, атеизм, молитва, духовный опыт, философский анализ, реализм.

Kirish: Jahon adabiyotida inson ruhiyati, uning ichki kechinmalarini, inson hayotining turli qirralarini realizm asosida tasvirlashi va falsafiy masalalarga ham chuqur yondoshgan.

Bugungi kunda ilm-fan tarqqiy etgan bir davrda inson qalbining ma'naviy ehtiyojlari shundayligicha qolmoqda. Mazkur asarda yozuvchi ilm-fanga cheksiz ishonuvchi, tashqi tomodan qanchalik dahriy bo'lib ko'rinmasin, qalbidagi yashirin e'tiqodni ochib beradi.

Balzak ko'roq axloqiy qadriyatlarni e'tiqod bilan bog'laydi. E'tiqod zaiflashsa, axloq ham yemirila boshlaydi. Uning qahramonlari mukammal emas, lekin ular real haqiqatga juda yaqin.

Xususan, Deplen o'zi inkor qilgan narsasiga o'zi qayta hayotga yaqinlashadi. Hayotimiz tasodiflarga boy emas, balki biz anglolmaydigan tartib ichida kechadi. Sinovlar insonni sindirmaydi, balki uning e'tiqodini sinaydi.

Dahriylik - Allohning yoki ilohiy kuchlarning mavjudligini rad etuvchilardir. Ateistlar dinni tanqid qilib, hayotni faqat ilmiy tarzda yoki mantiq orqali tushuntirishga intiladilar. Ular dinni insoniyatni manipulatsiya qilish vositasi sifatida qarab kelganlar.

Yozuvchi Onore de Balzak bu asar orqali inson faqat ilm va aql bilan yashay olmasligi va uning qalbi ham ma'naviy tayanch va ruhiy taskinga ehtiyoj sezishini ko'rsatadi. Inson qalbida javobsiz qoladigan savollar bo'ladi va ana shu savollarga javob ichki taskinni izlaydi.

Balzakning bu asarida dahriylikni butunlay inkor etish sifatida emas, balki insonning ruhiyatidagi murakkab holat sifatida tasvirlagan.

Doktor Deplen talabalik vaqtlari juda qiynalgan, qattiq nonni sutga ivitib botirib yeganlari, hatto kiyim-kechaklari bir ahvolda, ijara uyining egasi ijara haqqini to'lamagani uchun chiqarib yubormoqchi bo'lganida qo'shnisi Burja yordam qo'lini cho'zdi.

Hattoki u Deplenning barcha ishlarini xuddi xizmatkorlardek qilishi va to'plab qo'ygan mablag'ini Deplenning o'qishi uchun sarflaydi. Qizig'i shuki, Deplenning dahriyligini bilsa ham biror marotaba dindorlikka chorlamagan.

Burja o'zi qiynalsa ham, ayrim boylarga o'xshab davlati yo'q bo'lsa ham, Deplenning ilm olish uchun kurashadi. Bundan ko'rishimiz mumkin-ki, ayrim insonlar o'ziga to'q bo'lsa ham ilm olmoqchi bo'lgan, moddiy tomondan qiynalib qolganlarga yordam bergisi kelmaydi.

Ilm ahliga yordam berish insoniylikning bir belgisidir. Hozirgi kunda ham moddiy yo'qchilik sabab, ko'plab ilmga chanqoq insonlar qolib ketmoqda.

Deplen Burja orzu qilgandek ilm-fan orqali katta yutuqlarga erishgan, inson tanasidagi kasalliklarni mukammal biladigan shaxs sifatida mashhur bo'ladi. Burjaga ikkita orzu qilgan narsasi ot va suv tashiydigan bochka olib beradi. U ko'pchilikning nazarida diniy e'tiqodga ehtiyoj sezmaydigan, faqat ilmga tayanadigan inson sifatida qaraladi.

Oradan vaqtlar o'tib, Burja og'ir kasal bo'lib qoladi. Inson ma'shuqasini qanchalik sevsa, u ham Bibi Maryamni shunchalik sevardi. Ana shu oralig'da Deplen kuniga ikki marotaba uning haqqiga duo qilardi. Deplenga ibodatxonaga doim yordam berib turish kerakligini aytardi. U go'yoki butun umri davomida ibodat qilmagan odamga o'xshardi. Uning orzusi Jannatga tushish edi.

Deplen uni davolaydi, ammo 2 yil o'tgach vafot etadi. Deplenning hayotida oddiy insonning yaxshiligi va fidoyiligi sabab, Deplen Burjaning qilgan yaxshiliklarini qanday qilib qaytarishni bilmaydi va Bibi Maryam ibodatxonasiga borib, yiliga to'rt marotaba buyurtma berib, ibodat qiladi. Balki mana shu qilgan ibodatlari orqali otasi, Burja jannatga kirar degan fikrda bo'ladi. Mana shu orqali insoniy jihatdan minnatdorlik va ma'naviy burchini ado etgan.

Ancha yillardan so'ng shogirdi Byanshon ustozini ibodatxonada ko'rib qoladi va undan nega bunday qilish sababini so'raydi. Deplen ibodatxona egasining tizzasining qopqog'i yallig'langanini aytadi. Bunga u umuman ishonmaydi. Byanshon uni oxirgi marotaba davolaganda, u Deplenni dahriy jarroh sifatida vafot etgan deb aytolmasdi. Demak, ibodat faqat diniy amal sifatida emas, balki inson qalbining poklanishi hamdir. Islom dinida ham inson tabiatan e'tiqodga moyil yaratilganligi ta'kidlanadi.

Qur'oni Karim da ham "Bas, sen haqqa moyil bo'lib, yuzingni to'g'ri din tomon bur.

Alloh insonlarni yaratgan fitratni saqla" deb bejiz aytilmagan. Balzak go'yoki, ilm insonni buyuk qiladi, ammo e'tiqod uni komil qiladi degan. Sharq mutaffakirlaridan Imom G'azzoliy ham aytib o'tganidek, ilm va qalb uyg'unligi inson kamolotining asosi deb bilgan.

Hozir ham ko'plab insonlarni ilm va e'tiqod o'rtasida muvozanat topishiga harakat qilayotganini ko'rishimiz mumkin. Ayrimlar faqat mantiqqa tayangan, ba'zilari esa hissiyotga tayanadi. Balzak esa har ikkalasini ham bir-biriga bog'liq ekanligin ko'rsatib bergan. Ilm unga yo'l ko'rsatsa, e'tiqod unga ruhiy kuch ato etadi. E'tiqodsiz inson to'liq baxtli bo'lolmaydi va aqli bilan qanchalik Allohni inkor etmasin, lekin qalbi bilan uni izlashdan to'xtamaydi. Tolstoyning «Iqornoma» sida: «Inson qalbida butkul bo'shliq bo'lmaydi.

Biz insonlar nimanidir istayveramiz, nimanidir izlayveramiz, nimagadir intilaveramiz.

Shu paytgacha bu narsa nimaligiga javob izladim. Topdim. Bu Xudo!» qabilidagi fikrlar aytilgan. Asar orqali faqat din unga oid bo'lgan tushunchalar bilan emas, aksincha burch va mas'uliyatni ham ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Balzak bu asar orqali inson ruhiyatining murakkabligi va e'tiqodning hayotdagi o'rni haqida chuqur o'ylashga undaydi. Inson qancha ilmli, tajribali va mantiqqa tayangan bo'lmasin, qalbi baribir ma'naviy ozuqa istaydi.

Deplenning ibodat qilishi nafaqat ma'naviy ehtiyojni, balki yaxshilikni qadrlashga va insoniy burchni ado etishga da'vat etadi. Inson tili bilan inkor etsa ham, qalbida ishonch yashaydi. Mana shu jihati asarning falsafiy g'oyasini ochib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Onore de Balzak. Dahriyning ibodati. -Toshkent,2024
2. Gulasal Qodirova. Dahriyning ibodati-asl insoniylik aks etgan hikoya.
3. Normatov.U. Jahon adabiyot tarixi. -Toshkent; Fan nashriyoti.
4. Balzak. Inson komediyasi. -Toshkent; Adabiyot va san'at nashriyoti 1985
5. Qur'oni Karim. -Toshkent; Movarouunahr nashriyoti 2001.